



## BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARIDA MILLIY MA‘NAVIY QADRIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

*Siddiqova Yu.M.*

*Guliston davlat universiteti tayanch dokroranti*

**Tayanch so‘zlar:** qadryat tushunchasi, milliylik, vatan, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, o‘quvchilar, talabalar, didaktika, pedagogik jihatlar, ma‘naviy tarbiya, pedagogik tamoyillar psixologik tamoyillar, psixologik tamoyillar, ijtimoiy tamoyillar, madaniy tamoyillar, innovatsion tamoyillar, davomiy o‘rganish tamoyili.

**Ключевые слова:** концепция ценностей, национальность, родина, учитель начальных классов, учащиеся, дидактика, педагогические аспекты, нравственное воспитание, педагогические принципы, психологические принципы, социальные принципы, культурные принципы, инновационные принципы, принцип непрерывного обучения.

**Key words:** concept of values, nationality, homeland, primary school teacher, students, didactics, pedagogical aspects, moral education, pedagogical principles, psychological principles, social principles, cultural principles, innovative principles, lifelong learning principle.

Milliy ma‘naviy qadriyatlar har bir millatning o‘ziga xos madaniyati, urf-odatları va an‘analarini aks ettiradi. Ushbu qadriyatlar kelajak avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari bu jarayonda yetakchi rol o‘ynaydilar, chunki ular bolalarga ilk bilimlarni va axloqiy tamoyillarni singdiradilar.

Mustaqillikka erishilgandan keyin nafaqat ijtimoiy-siyosiy hayotda, balki ta‘lim-tarbiya jarayonida ham jiddiy o‘zgarishlar amalga oshirila boshlandi. Endilikda ta‘lim amaliyotida tarbiyalanuvchilarga bilimlarni tayyor holda berishdan voz kechilib, shakllanib kelayotgan yosh avlodning ma‘naviyatini sog‘lomlashtirish, ularni mute ijrochilikdan erkin ishtirokchi darajasiga ko‘tarishning yangi-yangi yo‘llari qidirilmoqda. O‘qitishning asosiy ashyolari bo‘lmish kontsepsiya, ta‘lim standartlari, dastur, darslik, metodik hamda o‘quv qo‘llanmalarni yangilash va takomillashtirish bilan birga ruhan sog‘lom,



aqlan barkamol, o'z fikri hamda qarashlariga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash ustuvorlik kasb etmoqda. Yoshlar tarbiyasida bir xil fikrlaydigan, yagona xulosaga keladigan avlodni shakllantirishdan voz kechilib, o'rniga ma'naviy sifatlarning etakchiligi, ko'ngil istaklari ustuvorligiga milliy an'analarga tayangan holda erishishga alohida diqqat qaratilmoqda .

Boshlang'ich ta'lim didaktikasining asoschilaridan biri, shveysariyalik pedagog Iogann Genrix Pestalozzi (1746-1827), ta'lim-tarbiyaning umumiy maqsadlarini uning ma'naviy-axloqiy tarkibiy qismlarigina echishga qodir deb ta'kidlagan . Ma'naviy-ahloqiy tarbiya masalalari haqida so'z borar ekan pedagog, yoshlarni yuksak ahloqiy fazilatlariga ega bo'lishlari masalasida fikr yuritib, ezgu va foydali ishlarda bevosita ishtirok etish orqali yosh avlodda ahloqiy ong, qadriyatlar va qarashlarni shakllantirish mumkinligini ta'kidlab o'tgan.

Mustaqillikning dastlabki bosqichida paydo bo'lgan ayrim muammolar chorak asr davomida ham to'laligicha echimini topa olmadi. O'tmish tuzumning qator illatlaridan qutulish uchun ezgu va foydali ishlarda bevosita ishtirok etadigan, ruhiyati mustaqillik davrida shakllangan avlod etilishi kerak edi. Ruhani mustaqil bo'lgan, o'z haq-huqini tanigan, ichida «Men»i bor kishilar tomonidan tarbiyalangan bolalargina tom ma'noda Shaxs bo'lib shakllanishlari mumkin. Chunki o'zi ma'nan noto'kis, umuminsoniy va milliy qadriyatlardan yiroq, fikran qashshoq o'qituvchi o'quvchilarini aqlan ham, ruhan ham sog'lom qilib tarbiyalay olmaydi. Ya'ni har qanday tarbiya avval tarbiyachini tarbiyalashdan boshlanishi kerak.

Agarda milliy tarbiya e'tiborsiz qoldirilsa, stixiyali tarzda kechsa, xalqning milliy o'zligini anglash darajasi, milliy g'ururi, madaniyati, vatanparvarlik darajasi susaya borishi , yangi tug'ilgan chaqaloq xususiyat jihatidan na ratsional na irratsional bo'lishi tadqiqotchi olimlar tomonidan ko'p bora ta'kidlab o'tilgan. Ma'lumki, hozirda talabalarni tayyorlashning zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimi oldiga ta'lim oluvchilarni milliy ma'naviy jihatdan etuk, jismoniy jihatdan sog'lom va intellektual salohiyatli bo'lib shakllanishini ta'minlash vazifasini qo'ymoqda. Bunday vazifani bajarishda ular ta'lim jarayoniga turli xil yondashuvlar va pedagogik ta'sir usullaridan foydalanadilar.

Talabalarining milliy ma'naviy qadriyatlarini rivojlantirishda ham yuqorida ta'kidlanganidek o'ziga xos yondashuv va pedagogik ta'sir usullari kerak bo'ladi. Ta'limda olib borgan izlanishlar va kuzatishlar natijalari ta'lim oluvchilarning milliy ma'naviy qadriyatlarini rivojlantirishda, ayniqsa ularning ma'naviy etuk bo'lib shakllanishida ta'lim-tarbiya birligi va ta'lim jarayonida milliy-ma'naviy qadriyatlardan samarali foydalanish borasidagi innovatsion yondashuv va



turli xil salbiy ta'sirlar hamda tahdidlar haqidagi ta'sirchan ma'lumotlarni to'plab, ularni ta'lim mazmuniga singdirish usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatmoqda. Talabalarning milliy ma'naviy qadriyatlarini rivojlantirish, innovatsion xarakterga ega bo'lgan integrativ yondashuv qilishni talab etadi, chunki unda ta'lim mazmuniga milliy-ma'naviy qadriyatlarga oid ma'naviy merosni va turli xil salbiy ta'sir xamda tahdidlarga oid ta'sirchan ma'lumotlarni singdirishga to'g'ri keladi. Chunki bunday integrativ xarakterdagi mashg'ulotlarni bajarish ushbu muammo echimini hal qilishga ijodiy yondashuvni va pirovard natijada innovatsion pedagogik usullarni ishlab chiqishni talab etadi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida milliy ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirishning nazariy asoslari quyidagi jihatlar orqali tushuntirilishi mumkin:

**1. Ma'naviy va axloqiy tarbiya nazariyasi:** Ma'naviy qadriyatlar, axloqiy tamoyillar va jamiyatning asosiy qoidalarini o'rganish. Bu nazariya bo'lajak o'qituvchilarga yosh avlodni ma'naviy jihatdan yetuk qilish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni shakllantiradi.

**2. Madaniyat va tarix fani:** Milliy ma'naviy qadriyatlarni tushunish uchun madaniyat va tarixni chuqur bilish muhimdir. Bo'lajak o'qituvchilar milliy madaniyatning rivojlanishi, xalq urf-odatlarini, an'analari va tarixi bilan tanish bo'lishlari kerak.

**3. Didaktika va pedagogika nazariyasi:** O'qitish metodlari va pedagogik yondashuvlarni o'rganish. Bu nazariya bo'lajak o'qituvchilarga milliy ma'naviy qadriyatlarni o'quvchilarga qanday qilib samarali etkazish kerakligini o'rgatadi.

**4. Psixologiya va bolalar rivojlanishi:** Bolalarning psixologik rivojlanishini o'rganish. Bu nazariya orqali o'qituvchilar bolalarning ma'naviy qadriyatlarni qabul qilish jarayonini tushunadilar va ularga mos ravishda ta'lim berish metodlarini ishlab chiqadilar.

**5. Ijtimoiy fanlar:** Ijtimoiy munosabatlar, jamiyatning rivojlanishi va individning jamiyatdagi o'rnini o'rganish. Bu bilimlar o'qituvchilarga o'quvchilarda milliy ma'naviy qadriyatlar va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirishga yordam beradi.


**6. Kommunikatsiya va muloqot ko'nikmalari:** Bo'lajak o'qituvchilar uchun samarali muloqot qilish va axborotni etkazish ko'nikmalari muhimdir. Bu ko'nikmalar milliy ma'naviy qadriyatlarni o'quvchilarga aniq va tushunarli tarzda etkazish imkonini beradi.



**7. Kreativlik va innovatsiyalar:** Yaratilish va yangi metodlarni qo'llash ko'nikmalari. Bu bo'lajak o'qituvchilarga milliy ma'naviy qadriyatlarni zamonaviy usullar orqali o'rgatish imkoniyatini beradi.

Bu nazariy asoslar bo'yicha chuqur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari yosh avlodni ma'naviy jihatdan yetuk qilish, milliy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida milliy ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirish tamoyillari quyidagi asosiy yo'nalishlarni qamrab oladi(1-rasm):



1-rasm. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida milliy ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirish tamoyillarining asosiy yo'nalishlarni

### 1. Milliy o'zlikni anglash:

- **Tarixiy xotirani saqlash:** O'zbekiston tarixini, xalqning urf-odatlarini va an'analarini o'qituvchilarga etkazish.
- **Madaniy merosni o'rganish:** Milliy madaniyat, san'at, adabiyot va musiqa bilan tanishtirish.

### 2. Ma'naviy tarbiya:

- **Axloqiy tamoyillar:** O'quvchilarga halollik, adolat, mehr-oqibat, hurmat kabi axloqiy qadriyatlarni singdirish.
- **Jamiyatda mas'uliyatli bo'lish:** O'quvchilarda ijtimoiy mas'uliyat va vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish.

### 3. Pedagogik tamoyillar:

- **Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim:** Har bir o'quvchining shaxsiy xususiyatlari, qiziqishlari va qobiliyatlarini inobatga olish.
- **Faollik va mustaqillik:** O'quvchilarning mustaqil fikrlashi va o'z fikrini erkin ifoda eta olishi uchun sharoit yaratish.

### 4. Psixologik tamoyillar:

- **Emotsional qo'llab-quvvatlash:** O'quvchilarning hissiy holatini tushunish va ularni ruhlantirish.
- **Pozitiv motivatsiya:** O'quvchilarning qiziqishini oshirish va ularni muvaffaqiyatga undash.

### 5. Ijtimoiy tamoyillar:

- **Hamkorlik va birdamlik:** Jamoaviy ish va hamkorlik muhitini yaratish.
- **Ijtimoiy moslashuv:** O'quvchilarga jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan ijtimoiy ko'nikmalarni o'rgatish.

### 6. Madaniy tamoyillar:

- **Madaniy xilma-xillik:** Turli millat va elatlar madaniyatini hurmat qilish va qadrlash.
- **Globalashuv:** Milliy ma'naviy qadriyatlarni zamonaviy dunyoqarash bilan uyg'unlashtirish.

### 7. Innovatsion tamoyillar:

- **Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish:** O'quv jarayonida axborot texnologiyalarini qo'llash.
- **Kreativ yondashuvlar:** Ma'naviy qadriyatlarni o'rgatishda yangi va kreativ usullarni qo'llash.

### 8. Davomiy o'rganish tamoyili:

- **Hayot davomida ta'lim olish:** O'qituvchilar o'z bilim va ko'nikmalarini doimiy ravishda yangilab borishlari zarur.
- **Kasbiy rivojlanish:** O'qituvchilarning professional rivojlanishi uchun muntazam ravishda treninglar va malaka oshirish kurslarida ishtirok etishi.

Ushbu tamoyillar bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ma'naviy jihatdan yetuk bo'lishini, shuningdek, milliy ma'naviy qadriyatlarni o'quvchilarga samarali tarzda etkazishlarini ta'minlaydi.

Bizda ham milliy ma'naviy qadriyatlarga ehtiyoj bormi? Umuman olganda, dunyoda o'ziga xos qadriyatlari bo'lmagan millatning o'zi yo'q. Biz ham istisno emasmiz. Biz ham tariximiz, yashash tarzimiz, milliy ma'naviyatimiz,



madaniyatimiz bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan qadriyatlarga egamiz. Ammo ularning eng muhimlarini belgilab olish va targ‘ib etish zaruratini ham e‘tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Talabalarda ham bunga ehtiyoj bor.

Mustaqil O‘zbekistonda olib borilayotgan siyosat – o‘zbek davlatchiligi, an‘analari va milliy, umuminsoniy qadriyatlarni chuqur hurmat qilishga asoslangan. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ham milliy ma‘naviy qadriyatlarimiz o‘z aksini topgan. Buni xususan, bunyodkorlik g‘oyalari sodiqlik, yuksak mas‘uliyat, ijtimoiy adolatparvarlik, insonparvarlik, milliy totuvlik, xalqimizning urf-odatlar va an‘analari, mafkuralar xilma-xilligi va erkinligi, ijtimoiy adolat, fuqarolarning qonun oldidagi tengligi, vijdon erkinligi, adolatli mehnat kabi tamoyillar misolida ko‘rish mumkin. Konstitutsiya bu hujjat. Konstitutsiyada belgilangan moddalarning hayotdagi ijrosini ta‘minlash uchun unda aks ettirilgan g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlash kerak. Buning uchun qadriyatlar bir-biriga mos tushishi kerak.

Milliy ma‘naviy qadriyatlarni shakllantirish bo‘ljak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining muhim vazifasidir. Shuning uchun oliy ta‘lim muassasalarida bo‘ljak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida milliy ma‘naviy qadriyatlarni rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish lozim hisoblanadi.

#### Adabiyotlar:

1. Sulaymonova F. Aql va tafakkur kuchi –T.: Fan, 2000. 58 b.
2. I.G.Pestalozzi. Smtliche Werke. Kritische Ausgabe. Begr. v. Arthur Buchenau, Eduard Spranger u. Hans Stettbacher. 31 B-de., Berlin und Zrich 1927-1996 (PSW 1-29).
3. I.G.Pestalozzi. Smtliche Werke. Kritische Ausgabe. Begr. v. Arthur Buchenau, Eduard Spranger u. Hans Stettbacher. 31 B-de., Berlin und Zrich 1927-1996 (PSW 1-29).
4. М.Куронов, И.Даминов, О.Бозоров, Ш.Акрамова. Миллий тарбия ва ёшлар / Миллий ғоя ва мафкура илмий-амалий маркази. - Тошкент: «Камалак» нашриёти, 2016.
5. Апресян Р.Г. Мораль и рациональность. - М., ИФРАН. 1995. – 197 с. С.112.
6. Куронов М. Миллий тарбия. – Т.: «Маънавият», 2007

#### РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada bo‘ljak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida milliy ma‘naviy qadriyatlarni shakllantirishning mazmun va mohiyati yoritilgan. Shuningdek, maqolada bo‘ljak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida milliy ma‘naviy qadriyatlarni rivojlantirish tamoyillarining asosiy yo‘nalishlari, bo‘ljak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida milliy ma‘naviy qadriyatlarni rivojlantirishning pedagogik jihatlarini batafsil ochib berilgan.

#### РЕЗЮМЕ

В данной статье освещены содержание и сущность формирования национальных духовных ценностей у будущих учителей начальных классов. Также в статье рассматриваются основные направления принципов развития национальных духовных ценностей у будущих учителей начальных классов и подробно раскрываются педагогические аспекты этого процесса.

#### SUMMARY

This article highlights the content and essence of fostering national spiritual values in future primary school teachers. Additionally, the article delves into the main directions of principles for developing national spiritual values in future primary school teachers and explores the pedagogical aspects of this development in detail.